

Atom energetikasi va qayta tiklanuvchi energetika bir-birini o'zaro to'ldirgan holda rivojlanadi

Negadir ba'zilar mantiqni shior qilib umuman mantiqqa qarshi ish tutishadi. Hech qanday asossiz balandparvoz so'zlarni o'rta tashlashadida, buni biror faktlar bilan isbotlash kerakligi to'g'risida o'ylab ham o'tirishmaydi. Mana yana bir shunday chiqish. (<https://www.facebook.com/groups/628555417650343/permalink/864805480692001/>)

O'zbekistonliklar AES qurilishiga qarshi emish. Qaysi o'zbekistonliklar to'g'risida gap ketayapti? Ular O'zbekiston aholisining necha foizini tashkil etadi? Hech qaysi jamiyatda hech qanday fikr 100 foiz aholi tomonidan to'la qo'llab-quvvatlanmaydi. Har bir inson o'z fikriga ega, lekin jamiyat har bir kishining fikriga quloq solgan holda eng oqilona yo'ldan rivojlanishga intiladi.

O'zbekiston yalpi ichki mahsulotida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish ulushi oxirgi 10 yil ichida 2,5 barobarga, aholi tomonidan elektr energiya sarfi deyarli 2 barobarga oshdi. Bu tendentsiya yil sayin kuchayib bormoqda. Respublikamiz kelgusi 10 yilda metallurgiya, mashinasozlik, yengil sanoat va boshqa sohalarda yirik loyihalarni amalga oshirishni rejalashtirgan. Bunday loyihalarni barqaror energiya manbalarisiz nafaqat amalga oshirish balki rejalashtirish ham mumkin emas. Shu nuqtai nazardan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 22-avgustdagi PQ-4422-sonli "Iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohaning energiya samaradorligini oshirish, energiya tejoychi texnologiyalarni joriy etish va qayta tiklanuvchi energiya (QTE) manbalarini rivojlantirishning tezkor chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, O'zbekistonda yoqilg'i-energetika ta'minotini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo'ljallangan konsepsiyasida qayta tiklanuvchi energiya manbalariga asoslangan elektr energiyasining Respublikaning umumiy energetikasidagi ulushi (hozirgi kunda 10%) 2025-yilda 20 % ni 2030-yilga kelib esa 25 % ni tashkil etishi kerak. Shu yilga kelib Respublika bo'yicha umumiy energetika quvvati 29,3 GVt ga yetishi rejalashtirilayotganini hisobga olsak, qurilishi rejalashtirilayotgan AESning 2,4 GVt ulushi 8,2 % ni tashkil etadi. Ya'ni AES ulushi qayta tiklanuvchi energiya ulushidan qariyb 3 marta kam. Bu nimadan dalolat beradi? Bu O'zbekistonda energetikaning turli manbalarini mutanosib rivojlantirishga asoslangan, aynan mantiqan to'g'ri energetik siyosat olib borilayotganining isbotidir. Har bir sohaning o'ziga yarasha afzallik va kamchiliklari bor. Bular to'g'risida ko'p gapirilgan. Faqat bir tomonini ta'kidlamogchiman, atom energetikasining asosiy afzalliklaridan biri bu arzon va qayta tiklanuvchi energiyadan farqli o'laroq, barqaror energiya manbai hisoblanadi. Bu esa rivojlanib borayotgan Respublikamiz iqtisodiyotini rejalashtirish uchun juda zarur.

O'zbekistonda hech kim qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rad etayotgani yo'q. Aksincha, bu sohaning keskin rivojlanishi kutilmoqda, va o'ylaymizki, atom energetikasi va qayta tiklanuvchi energetika bir-birini o'zaro to'ldirgan holda rivojlanadi.